



Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Davlat va huquq asoslari fani 9-sinf

22.10.2024

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Gipoteza – bu ...?

- A) lotin tilidan olingan bo‘lib, bayon qilish degan ma‘noni anglatadi
- B) yunon tilidan olingan bo‘lib, bayon qilish degan ma‘noni anglatadi
- C) yunoncha so‘z bo‘lib, faraz qilish, fikr yuritish degan ma‘noni anglatadi
- D) lotin tilidan olingan bo‘lib, majburiy chora degan ma‘noni anglatadi

2. Huquqbuzarlik xususiyati va belgilariga qarab nechta guruhga bo‘linadi?

- A) 8 ta B) 6 ta C) 4 ta D) 2 ta

3. Siyosiy partiyalar tuzish va ularning ishida ishtirok etish fuqarolarning qanday huquqi hisoblanadi?

- A) Iqtisodiy huquqlari B) Ijtimoiy huquqlari C) Siyosiy huquqlari D) Shaxsiy huquqlari

4. Davlatning mavjudligi, uning zarurligi nimada o‘z aksini topadi?

- A) davlat funksiyalarida B) davlat qonunlarida C) huquqiy madaniyatida D) davlat mustaqilligida

5. Amir Temur davlatida qozilar kimga hisobot berishgan?

- A) Shayxulislomga B) Hukmdorga C) Vazirga D) Qo‘shbegiga

6. Hozirgi kunda jahonda nechta federativ davlatlar mavjud?

- A) 40 tadan ortiq B) 60 tadan ortiq C) 30 tadan ortiq D) 20 tadan ortiq

7. Qaysi hujjat amaldagi qonunlar uchun yuridik asos bo‘ladi?

- A) Xalqaro shartnoma B) Konstitutsiya C) Prezident qarori D) Xalqaro norma

8. Insoniyatning ibtidoiy jamoa tuzumidan sivilizatsiya tamon burilishi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang?

- A) Jamiyatning shakllanishi
- B) Davlatning paydo bo‘lishi
- C) Ijtimoiy hokimiyatning vujudga kelishi
- D) Huquqiy davlatning tuzulishi

9. Davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari va uslublari tizimga nima deyiladi?

- A) Siyosiy tartibot
- B) Demokratiya
- C) Davlatning tuzulishi
- D) Davlatni boshqarish

10. Davlat shakllari qaysi javob variantida to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) Boshqaruv shakli, ma‘muriy-hududiy tuzilishi
- B) Boshqaruv shakli, tuzilish shakli, siyosiy tartibot
- C) Boshqaruv shakli, tuzilish shakli, ma‘muriy-hududiy tuzilishi
- D) Unitar, federatsiya, konfederatsiya





Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Davlat va huquq asoslari fani 9-sinf

22.10.2024

2-qism: Har bir topshiriq 1,7 balldan baholanadi

11. Intizomiy jazo turlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- A) Jarima va ozodlikdan cheklash
- B) Ishdan chetlatish, axloq tuzatish ishlari
- C) Jarima, ogohlantirish, mehnat shartnomasini to'xtatib turish
- D) Hayfsan, jarima, mehnat shartnomasini bekor qilish

12. Aflotunning aytishicha eng mushkul ish nima?

- A) hokimiyatni boshqarish B) xalq ehtiyojlarini qondirish C) qonun joriy qilish D) jamiyatda tartib o'rnatish

13. "Adolat – oxiratda najot, dunyoda saodat boshi." Ushbu fikrlar muallifini aniqlang.

- A) Ali ibn Abu Tolib B) Abu Ali ibn Sino C) Abu Rayhon Beruniy D) Abdulloh Muqni

14. O'zbekiston Respublikasi sud tizimining xalqaro andozalarga mos ekanligini tasdiqlovchi jihatlaridan biri qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Aybsizlik prezumpsiyasi qoidasining qonunda aks ettirilganligi
- B) Ishlarning oshkora ko'rib chiqilishi
- C) Sud qarorlarining umummajburiyligi
- D) Sud qarorlarining qonun hujjatlariga muvofiq ekanligi

15. Agar sud hokimiyati ijro hokimiyati bilan birlashsa, u holda sud hakami sitamgarga aylanishiga imkoniyat tug'iladi. Ushbu jumla kimga tegishli?

- A) Ali ibn Abu Tolib B) Monteskiyo C) Sitseron D) Mark Tulliy

16. Lotinchadan tarjima qilinganda "qoida", "namuna" ma'nosini anglatuvchi atama ...

- A) Dispozitsiya B) Obyekt C) Sanksiya D) Norma

17. Mamlakatning ichki huquq tizimi tarmoqlari qanday turlarga ajratiladi?

- A) Moddiy va ijtimoiy B) Xususiy va xalqaro C) Ichki va tashqi D) Moddiy va protsessual

18. Qonun osti hujjatlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

- A) Qonun, kodeks, farmon
- B) Farmon, qaror, buyruq
- C) Kodeks, farmon, sud hujjati
- D) Ijroiya organi qarori, xat, tilxat

19. "Davlatu saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan tikdir. Dono vazir bularning har uchalasini tadbirkorlik bilan yaxshi ahvolda saranjom tutadi". Ushbu so'zlar muallifini aniqlang.

- A) Abu Nasr Farobiy B) Abu Ali ibn Sino C) Amir Temur D) Ulug'bek

20. Davlat organiga to'g'ri berilgan ta'rifni toping.

- A) jamiyatni boshqarish va xalq manfaatlarini himoya qilishni amalga oshiradigan davlat organlarining yaxlit tizimi





Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Davlat va huquq asoslari fani 9-sinf

22.10.2024

- B) qonunga muvofiq ravishda o'z tizimiga, ijtimoiy hayotining muayyan sohasini boshqarish bo'yicha aniq belgilangan vakolatiga ega bo'lgan davlat idorasi yoki muassasasi
- C) komil fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda axloqiy, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega fuqarolardan iborat jamiyat
- D) majbur qilish kuchiga ega bo'lgan, hududida istiqomat qiluvchi barcha insonlarning manfaatlarini himoya qiladigan tashkilot.

3-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi

21. Huquqiy davlatga xos bo'lgan belgilarni toping?

- 1) Sud mustaqilligining ta'minlanganligi;
- 2) Qonun o'rnini ko'pincha qat'iy buyruqlar egallaydi;
- 3) Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanadi;
- 4) Mansabdor shaxslarga haddan tashqari ko'p vakolatlar beriladi;
- 5) Hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi.

A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 3, 5 D) 1, 3, 5

22. Quyida berilgan javoblar orasidan federativ davlatga xos bo'lmagan belgini aniqlang?

- A) federatsiya hududi uning subyektlari hududi yig'indisidan iborat bo'ladi
- B) oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati federal davlat idoralariga tegishli bo'ladi
- C) federatsiya subyektlari umumiy yagona konstitutsiyaga ega bo'lib, o'zlarining oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga ega bo'ladi
- D) federatsiya oliy qonun chiqaruvchi idorasi odatda ikki palatali bo'ladi. Bunda yuqori palata federatsiya a'zolarining manfaatlarini ifoda etadi

23. Demokratik tartibot belgilarini aniqlang.

1. Shaxsning iqtisodiy jihatdan erkin bo'lishi;
2. Inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarining e'tirof qilinishi va kafolatlanishi;
3. Davlat boshqaruvi ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi tamoyili asosida amalga oshirilishi;
4. Hokimiyat vakolatlarining bo'linishi;
5. Ijtimoiy hayotda fikrlar xilmaxilligi, ijtimoiy-siyosiy birlashmalarning ko'pligi;
6. Qonun ustuvorligi;
7. Davlat boshqaruvida ko'pchilikning ozchilikka bo'ysunishi tamoli asosida amalga oshirilishi

A) 1, 2, 3, 5, 6 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6 C) 2, 3, 4, 7 D) 1, 2, 3, 6, 7

24. "Davlat" tushunchasiga to'g'ri berilgan ta'rifni aniqlang?

- A) Majbur qilish kuchiga o'z fuqarolariga, shuningdek hududida istiqomat qiluvchi barcha insonlarning manfaatlarini himoya qiladigan siyosiy tashkilot
- B) Majbur qilish kuchiga ya'ni hokimiyatiga, o'z fuqarolariga ega bo'lgan, boshqa davlatlar bilan siyosiy iqtisodiy va ma'naviy aloqalarni, amalga oshiradigan mustaqil siyosiy tashkilot
- C) Majbur qilish kuchiga ega bo'lgan, o'z fuqarolariga ega bo'lgan boshqa davlatlar bilan siyosiy, ibtidoiy, madaniy aloqalarni amalga oshiradigan mustaqil siyosiy tashkilot
- D) Majbur qilish kuchiga, ya'ni hokimiyatiga ega bo'lgan, o'z fuqarolari, shuningdek hududida istiqomat qiluvchi, boshqa insonlarning manfaatlarini himoya qiladigan, boshqa davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarining amalga oshiradigan mustaqil siyosiy tashkilot





Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Davlat va huquq asoslari fani 9-sinf

22.10.2024

25. Qaysi alloma har qanday jamiyat, davlat ma'lum adolatni himoya etuvchi, qonunlar asosida idora etiladigan, adolatsizlikka yo'l qo'yilmaydigan qonun ustuvor bo'lgan adolatli jamiyat ta'limotini yaratishga, uni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan?

- A) Abu Ali ibn Sino B) Abu Rayhon Beruniy C) Abu Nasr Forobiy D) Al-Xorazmiy

26. Amir Temur davlatida odil sudlovni amalga oshirish uchun mukammal tizimdagi sud tizimi mavjud bo'lgan. Shu sud tizimining sohalarini aniqlang.

1. Fuqarolik sudi (aholi qozisi); 2. Harbiy sud (lashkar qozisi); 3. Shariat sudi (islom qozisi); 4. Amaldorlar sudi (xizmatchilar qozisi); 5. Oliy sud; 6. Tuman sudlari

- A) 1, 4, 5, 6 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 2, 3, 6 D) 1, 2, 4, 6

27. Ekologiya huquqi sohasi orqali qanday munosabat tartibga solinadi?

- A) tabiatni muhofaza qilish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar
B) qanday xatti-harakatlar jamiyat uchun xavfli ekanligi belgilanadi, ularni sodir etganlar qanday jazolanishi va bu borada yuzaga keladigan barcha munosabatlar
C) mulk bilan aloqador hamda nomulkiy munosabatlar
D) korxonalar, tashkilotlar va ular ning xodimlari o'rtasidagi mehnat munosabatlari

28. Qaysi hollarda fuqaro istisno tariqasida to'liq muomala layoqatiga ega bo'ladi?

- A) Nikohdan o'tgan vaqtdan boshlab
B) Fuqarolik pasportini olishi bilan
C) Maktabni tugatishi bilan
D) Jinoyat sodir etganda

29. Unitar davlatga xos bo'lgan belgilarni aniqlang?

1. yagona pul birligining amal qilishi;
2. tarkibiy qismlar, ya'ni ma'muriy-hududiy tuzilmalarga bo'linish;
3. mustaqil davlatlar muayyan maqsadlarga erishish uchun birlashadi;
4. barcha ma'muriy-hududiy birliklar uchun turli shakldagi soliq va kredit siyosatining joriy qilinganligi;
5. yagona fuqarolikning mavjudligi.

- A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 5 C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 3, 4

30. Notarial idoralarning qay tartibda tashkil etiladi va tugatiladi?

- A) Prezident tomonidan tashkil etiladi va tugatiladi
B) Adliya vazirligi tomonidan tashkil etiladi va tugatiladi
C) Notariuslar o'z faoliyatini mustaqil tashkil etadi va tugatadi
D) Notariuslarni tashkil etish va tugatishga hech qaysi davlat organi vakolatli emas

